

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**2024/6--SON
ILOVA TO'PLAM**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

Sh.T.Mavlonova	
Inklyuziv ta'lim o'quvchilariga ingliz tilini o'rgatishning pedagogik-psixologik, ijtimoiy xususiyatlari	214
Z.M.Xursanova	
Bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilarining mantiqiy fikrlashini rivojlantirish mazmuni	219
A.B.Mirzayev	
Effective ways to use the task-based approach in foreign language courses	223
Sh.A.Pakirdinova	
Blended learning texnologiyasining nazariy asoslari va uning ta'lim jarayonida ahamiyati	226
Sh.A.Pakirdinova	
Comparative analysis of online and traditional classroom learning	231
M.M.Umaralieva	
Fostering autonomy and engagement in higher education: self-regulated learning with multimedia tools	235
Z.N.Usmonov	
Maktabgacha tarbiya muassasalaridagi bolalar jismoniy tarbiyasi	239
A.T.Akbarov	
Turli maktab yoshidagi o'quvchilar organizmining funksional holatini o'ziga xos xususiyatlari	246
U.K.Rahmonov	
Musiq madaniyat darslarini olib borishda ta'lim beruvchining o'rni	252
U.K.Rahmonov	
Musiq darslarida zamonaviy texnologiyalarni qo'llashda loyiha texnologiyasini ahamiyati	256
V.Abdurakhmanov	
"The challenges of teaching english to international students"	261
D.Y.Irmatov	
Tarbiyachining kasbiy nazari va kasbiy amaliy tayorgarligi mazmuni monitoringi va maktabgacha ta'lim yoshidagilar "Ontogonez"ga mansub bilimlar	265
Н.Соби́ров, О.А.Акбаров, Э.Ф.Гиздулин	
Инновационная педагогическая деятельность	269

IQTISODIYOT

M.O.Baltabayeva, K.N.Raximova, M.K.Axmadaliyeva	
Ayollarning iqtisodiy mustaqilligi oilaning yaxshi yashashiga qo'shgan hissasi	273
K.N.Raximova, M.O.Baltabayeva, M.K.Axmadaliyeva	
Yashil iqtisodiyot fanida yashil iqtisodiyotga o'tish dolzarbligi va konseptual asoslari	276

FALSAFA

N.M.Axmadiyev	
Ijtimoiy rivojlanish va yoshlarni dunyoqarashida manfaatlar to'qnashuvi	281
I.Toirov	
Milliy davlatchilik asoslarini mustaxkamlash va fuqarolik jamiyati barpo etishning falsafiy jihatlarini	284
I.A.Nurmatova	
Jamiyat ma'naviy muhitida oila institutining roli	289

SIYOSAT

B.P.Zokirov	
Jinoiy aktivlarni qaytarish bo'yicha universal va mintaqaviy xalqaro-huquqiy asoslari	293
S.M.Xoliqov	
Davlatning mudofaa qobiliyatining huquqiy asoslari	301
B.P.Zokirov	
Xorijiy ilg'or tajribalar jinoiy aktivlarni qaytarish mexanizmlarini rivojlantirishning muhim omil sifatida	304
S.M.Xoliqov	
Milliy xavfsizlikni ta'minlashda parlament quyi palatasi faoliyatidagi muammolar	314



UO'K: 339.13+338.2

**YASHIL IQTISODIYOT FANIDA YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH DOLZARBLIGI VA
KONSEPTUAL ASOSLARI****ВОЗМОЖНОСТИ И КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ ОСНОВЫ ПЕРЕХОДА К ЗЕЛЕННОЙ
ЭКОНОМИКЕ В ЗЕЛЕННОЙ ЭКОНОМИКЕ****FEASIBILITY AND CONCEPTUAL BASIS OF THE TRANSITION TO A GREEN
ECONOMY IN THE SCIENCE OF GREEN ECONOMY****Raximova Kizlarxon Ne'matjon qizi¹** ¹Farg'ona davlat universiteti o'qituvchi**Baltabayeva Maloxat Ortiqaliyevna²** ²Farg'ona davlat universiteti, o'qituvchi**Axmadaliyeva Mohigul Kadirovna³** ³Farg'ona davlat universiteti o'qituvchi**Annotatsiya**

Ushbummaqolada "Yashil iqtisodiyot" O'zbekiston iqtisodiyotini sog'lomlashtirish, zaharli chiqindilarini kamaytirish, ularni qayta ishlash suv xavzalarini ifloslanishini oldini olish masalalari yoritilgan. O'zbekistonning 2030-yilgacha bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasini ta'minlashda barkaror rivojlanishga erishish vositalari hisoblangan iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik komponentlarni uzaro muvofiqlashtirish murakkab vazifa xisoblanadi. Iqtisodiy va ijtimoiy komponentlar jamiyat oldiga bir avlod mobaynida adolatga erishish va axolining kambag'al guruhlariga maqsadli yordam ko'rsatish kabi yangi vazifalarni ko'yimoqda. Iqtisodiy va ekologik komponentlarning atrof-muxitga tashqi ta'siri qiymatini baxolashning zarurligi bilan bog'lik yangi g'oyalar va yondoshuvlarning shakllanishiga olib keldi. Barqaror iqtisodiy rivojlanishning ijtimoiy va ekologik komponentlari esa avlodlar ichida va avlodlar o'rtasida tenglikni ta'minlash kabi masalalarning dolzarbligini yanada oshirmoqda.

Аннотация

В этом статье рассказывается о том, как зеленая экономика может помочь предотвратить загрязнение водосборов за счет переработки токсичных отходов для улучшения экономики Узбекистана. Обеспечение стратегии социально-экономического развития Узбекистана до 2030 года является комплексной задачей по координации экономической, социальной и экологической составляющих, которые рассматриваются как средства достижения устойчивого развития. Экономическая и социальная составляющие ставят перед обществом новые задачи, такие как достижение справедливости и оказание адресной помощи бедным слоям населения в течение поколения. Это привело к формированию новых идей и подходов, связанных с необходимостью оценки величины внешнего воздействия экономической и экологической составляющих на окружающую среду. Социальная и экологическая составляющие устойчивого экономического развития повышают актуальность таких вопросов, как обеспечение равенства внутри поколений и между ними.

Abstract

This article highlights how "green economy" can help prevent the pollution of watersheds by recycling toxic waste to improve the Uzbek economy. Ensuring the socio-Ekonomik development strategy of Uzbekistan until 2030 is a complex task to coordinate the Ekonomik, social and ecological components that are considered as means of achieving sustainable development. Ekonomik and social components set new tasks for the society, such as achieving justice and providing targeted assistance to the poor groups of the population within a generation. It led to the formation of new ideas and approaches related to the need to assess the value of the external impact of Ekonomik and ecological components on the environment. The social and ecological components of sustainable Ekonomik development increase the relevance of issues such as ensuring equality within and between generations.

Kalit so'zlar: investitsiya, bozor iqtisodiyoti, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, kapital qo'yilmalar, kredit.

IQTISODIYOT

Ключевые слова: инвестиции, рыночная экономика, социально-экономическое развитие, капиталные вложения, кредит.

Key words: investment, market economy, social and economic development.

KIRISH

Hozirgi vaqtda juda ko'p davlatlarda "Yashil iqtisodiyot" rivojlanib borayapti (bu davlatlar Shvesiya, Janubiy Koreya, AQSh, Germaniya, Daniya, Angliya, Yaponiya, Braziliya va boshqalar).

XXI asrning boshlaridan dunyo olimlari "Yashil iqtisodiyot" to'g'risida juda ko'p munozaralar olib bormoqdalar, iqtisodiy o'sishning omillarga, atrof muhitga tobora bog'liq bo'lib qolayotganini yozmoqdalar.

Yevropa davlatlarining 2020-yilga borib ishlab chiqarishda atmosferagachiqarilayotgan is gazlarining 20 foizga, energiya resurslarining samaradorligini 20 foizga oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini 20 foizga ko'paytirish, transport tizimida atmosferaga chiqarilayotgan SO₂ni 20 foizga kamaytirish dasturini amalga oshishi Yevropa iqtisodiyotida tub burilishni vujudga keltiradi. Bo'lib o'tgan iqtisodiy, ekologik va moliyaviy inqirozlar dunyo iqtisodiyotining boshi berk yo'lga olib keldi. Chunki, an'anaviy iqtisodiyotning birdan bir mezon – pul edi, bu iqtisodiyotda ekologik omilni inkor etgan edi. Chunki inson tabiat ustida hukmronlik qilgan. Buning oqibatida jamiyatda bozor halokatga uchradi. Samarasiz davlat siyosati olib borildi, infratuzilmalar ishdan chiqdi va ishsizlik, kambag'allik muammolari vujudga keldi. Ko'p mamlakatlarda o'rmonlarni kesib yuborilishi (ayniqsa archazorlarni, sadr, qarag'ay o'simliklarni yiliga 10-13 mln.ga o'rmonzorlar kesilmoqda). eko muvozanatni buzilishiga olib kelmoqda (BMT hisobotida aytilishicha har yili havoni ifloslanishidan 2,4 mln. kishi vafot etadi).[1]

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Yashil iqtisodiyot"ning uch tarkibi: sotsial-ijtimoiy, tabiiy(atrof-muhit), iqtisodiy(oziq-ovqat, kiyim-kechak va xizmat ko'rsatish) tomonlarini hisobga olsak, hozirga kelib cheklangan iqtisodiy resurslar sharoitida to'xtovsiz, cheksiz o'sib borayotgan jamiyat ehtiyojlarini to'la-to'kis qondirib bo'lmazligi yer ustidagi butun borliq bir-biri bilan bog'liq ekanligi, rivojlangan, rivojlanayotgan va bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan davlatlar iqtisodiyotida tub tarkibiy o'zgarishlarni ko'ramiz. "Yashil iqtisodiyot"da tabiat va inson bir-biri bog'liq, ajralmas omillar deb qaraladi. Inson tabiatni bir qismi, bir bo'lagi, u o'zicha yashay olmaydi [1]. Yashil iqtisodiyot va kichik biznes bilan bog'liq yo'nalishda chet el hamda mamlakatimiz olimlari tomonidan keng tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Jumladan, uzoq xorijda global iqtisodiy-ekologik muammolar bilan P.A.Kovolyov va A.A.Sheveleva, Bogautdinov N.G, Butyanko G.V, Lavrentev, Gelovani E.S, Stepanishvili N.A, Kafian A.G, Costanza R., Cataldo A.L., Burgstaller D., Anthony S.F. Chiu, Geng Yong, Brian Boyd, Yue Yang, Zhaoqi Wang, Jianlong Li, Chencheng Gang, Raul P. Lejano, Daniel Stokols, Yanzhen Zhang, Ying Zhang, Inakwu Odeh, Jiaguo Qi va boshqa iqtisodchi olimlar shug'ullangan²⁵.

NATIJA VA MUHOKAMA

Hozirda ekologik kasallanish tufayli tobora bolasizlik (hatto sog'lom ota va ona, lekin farzandsiz) rivojlanib bormoqda, atrof-muhitni ifloslanishi, chiqindilarni ko'pligi, radioaktiv moddalar, elektromagnit nurlari, elektromagnit nurlanish, ba'zi bir ozuqaviy bioqo'shimchalar insonda mutagen holatni vujudga keltirmoqda (злакачественный опухол). Ko'p qavatli uylarda yashash, doimiy yashash oqibatida insonlarda immunitetni pasayib ketishi, ichilayotgan suvlarni sifatsizligi,

²⁵ P.A.Kovolyov va A.A.Sheveleva muallifligida yozilgan Tut ipak qurilish urug'chiligi va selektsiyasi Costanza, R., Stern, D. I., He, L., Ma, C. (2004). Influential publications in ecological economics: a citation analysis. *Ecological Economics* 50(3-4): 261-292; Cataldo A.L., Burgstaller D., Hribar G, Jungbauer A, Satzer P, Economics and ecology: Modelling of continuous primary recovery and capture scenarios for recombinant antibody production, *Journal of Biotechnology* (2019), doi: <https://doi.org/10.1016/j.jbiotec.2019.12.001>; Brian Boyd. Ecologies of fiber-work: Animal technologies and invisible craft practices in prehistoric Southwest Asia. *Quaternary International*; Andrew Brennan. Asian traditions of knowledge: the disputed questions of science, nature and ecology. *Stud. Hist. Phil. Biol. & Biomed. Sci.* 33 (2002) 567–581; Anthony S.F. Chiu, Geng Yong. On the industrial ecology potential in Asian Developing Countries. *Journal of Cleaner Production* 12 (2004) 1037–1045; Raul P. Lejano, Daniel Stokols. Social ecology, sustainability, and economics. *Ecological Economics*; Sangwon Suh. Theory of materials and energy flow analysis in ecology and economics. *Ecological Modelling* 189 (2005) 251–269; Yue Yang, Zhaoqi Wang, Jianlong Li, Chencheng Gang, Yanzhen Zhang, Ying Zhang, Inakwu Odeh, Jiaguo Qi. Comparative assessment of grassland degradation dynamics in response to climate variation and human activities in China, Mongolia, Pakistan and Uzbekistan from 2000 to 2013. *Journal of Arid Environments*

havoni zaharlanishi, shovqin-suronlar, yashash sharoitlarni yomonlashuvi hayot tarziga ta'sir qilmoqda.

"Yashil iqtisodiyot" tushunchasi xalqaro tashkilotlar YUNEP, YUNESKO bergan ta'riflarga ko'ra iqtisodiyotni sog'lomlashtirish, zaharli chiqindilarni kamaytirish, ularni qayta ishlash suv havzalarini ifloslanishini oldini olish avtomobillarini suyuq gaz, biotoplivaga o'tkazish quyosh va shamol energiyasidan foydalanish asosida milliy daromadni barqaror o'stirish va xalq farovonligini ta'minlash mumkin. O'zbekistonning "Yashil iqtisodiyot"ga o'tishi hayotiy zaruratga aylanib bormoqda. Chunki juda ko'p turdagi tabiiy resurslarimizni 15-20 yillar ichida (tabiiy gaz, ko'mir) ishlatib bo'linadi. Hatto bugungi kunda neft resurslari (O'zbekiston yiliga 1 mln. 300 ming tonna benzin iste'mol qiladi) ishlatib bo'lindi. Suv resurslari limiti 53,5 mlrd. metr kub bo'lib, mutaxassislarining hisobicha 68 mlrd. metr kub bo'lishi kerak. Aks holda bug'doy va paxta ekin yerlarini qisqartirishga to'g'ri kelmoqda. Davr yer, suv va energiya resurslaridan unumli foydalanishni talab qilmoqda[3].

Janubiy Koreya loyixasi bo'yicha biotopliva ishlab chiqarish, plastik maxsulotlardan ENVION OIL GENERATOR mini zavodlarini qurish, har tonna plastikadan 3-5 barrel neft olish mumkinligi bu esa Rossiya va Qozog'istondan neft maxsulotlarini sotib olishdan ko'ra 2-3 marta arzon tushadi. Bir tonna benzinni yoqish borasida avtomobil atmosferaga 600 kg okisi uglerod, 40 kg oksilav azot va 100 kg turli zaharli uglerodlar chiqarib, atmosferadan bir yil davomida 4 tonna kislorodni so'rib oladi. Germaniyada chiqindilarni qayta ishlovchi kompaniya HAMOS plastik paketlardan, shishalardan ya'ni 1,5 tonna chiqindilardan 500 litr yoqilg'i olayapti.

"Yashil" iqtisodiyot nazariyasi quyidagi uch komponent asosida qurilgan.

1. Cheklangan tabiiy muhitda iqtisodiy ta'sir doirasi va taraqqiyotni chegarasiz ravishda kengaytirib hamda ta'minlab bo'lmaydi.

2. Resurslar cheklangan bir sharoitda doimiy o'sib boruvchi cheksiz ehtiyojlarni qondirib bo'lmaydi, shu bois tanlov usulidan foydalaniladi.

3. Yerdagi barcha holat va tizimlar (shu o'rinda tabiiy va iqtisodiy muhit) o'zaro bog'liq. Bugungi kunda "Yashil" iqtisodiyot nazariyasini keng tarqalib ketishini asosiy sababi jahon iqtisodiy inqirozlari va mavjud ekologik muammolarning global ahamiyat kasb etishi va "yashil" iqtisodiyot ehtiyojlarini qondirishi bilan bir qatorda mavjud muammolarni hal etishga qaratilganligidir.

Bizga ma'lumki, iqtisodiy rivojlanishning har bir bosqichida atrof-muhit, tabiat iqtisodiyotning asosiy elementi, omili sanaladi. Tabiat va iqtisodiyotning mukammal muvozanatlashgan o'zaro munosabati yashil iqtisodiyot modemida yaqqol namoyon bo'ladi. Yashil iqtisodiyot keyingi yillarda rivojlanib, iqtisodiy-ijtimoiy tizimga aylandi. "Yashil" iqtisodiyotning bosh vazifasi ishlab chiqarish hamda iste'mol qilish jarayonlarini ekologik standartlarga mos ravishda o'zgartirishdan iborat. Biznes muhitida "Yashil" iqtisodiyot tushunchasiga juda katta e'tibor berilmoqda va moliyaviy fondlar, yirik kapital egalari, biznesmenlar va ba'zi davlatlarda oddiy fuqarolar (masalan Skandinaviya, Singapurda) "Yashil" iqtisodiyotning targ'ibotchilariga aylangan. Misol uchun dasturlarda foyda solig'ini 30 foizgacha besh yil davomida pasaytirilgan bo'lsa, Norvegiya, Niderlandiyalarda quyosh energiyasini qo'shni davlatlarga eksport qilishdan keladigan yillik foyda daromadning 20 foizini tashkil qilgan. "Yashil" iqtisodiyotni rivojlantirishda Yaponiya, Janubiy Koreya, Singapur davlatlari lidek hisoblanadi. Shuni ham aytish kerakki, har bir mamlakat o'z iqtisodiy, tabiiy va mehnat resurslaridan foydalanish imkoniyatlaridan kelib chiqib o'z "yashil" iqtisodiyotini yaratadi, chunki hozircha universal "yashil" iqtisodiyot modeli mavjud emas. O'zbekiston iqtisodiyotining modernizatsiya qilish innovatsion tarmoqlarni rivojlantirish sharoitida "Yashil" iqtisodiyotni o'rni yuqori baholash mumkin. Chunki, O'zbekistonda "Yashil" iqtisodiyotga o'tish imkoniyatlari katta ekanligi, tabiiy resurslarga boyligi, atrof-muhitga zarar keltirmaydigan ishlab-chiqarishni tashkil etish va shu bilan birga yuqori quyosh energiya manbai borligini aytish mumkin.

Respublikada quyosh energiyas bo'yicha yalpi salohiyati 50973 mln tonna neft ekvivalentiga teng bo'lsa, shamol energiyasining yalpi salohiyati 2,2 tonna neft ekvivalenti baholanmoqda.

2016 yilning aprel oyida Buxoroda hamdo'stlik davlatlari ichida birinchi bo'lib 1,2 MVT quvvatiga ega bo'lgan avtonom quyosh elektr stansiyasi ishga tushirildi. Samarqandda quvvati 100 Kvt bo'lgan quyosh fotoelektr stansiyasi qurilmoqda. Yer yuzasiga tushayotgan quyosh nurlarining o'rtacha intensivligi, Yevropa mamlakatlarida – 2 Kvt/m², Tropik va Osiyo mamlakatlarida – 6

IQTISODIYOT

Kvt/m² ga teng. O'zbekistonda o'racha 300 kun quyoshli bo'ladi. Haroratning o'rtacha miqdori +42°ni kunning uzunligi 16 soatni tashkil qiladi.

O'zbekistonning "Yashil iqtisodiyot" tizimiga o'tish imkoniyati yetarlicha manbaga ega. Quyoshli kunlarni ko'pligi, biologik o'simliklar xilma-xilligi o'rinbosar bio-neft maxsulotlarini ishlab chiqarishga moddiy baza yaratib bermoqda. Dukkakli, boshqoli o'simliklardan (raps, soyali o'simlik, makkajo'xori, kungaboqar, trosnyak) biotopliva ishlab chiqarish manbai ekanligi biotopliva tarkibida oltingugurt va benzol yo'q etanol darajasi – 58 ni tashkil qiladi. Bu yerda tabiatni o'zi xom ashyolar beradi, bu o'simliklar ortiqcha mexnat talab qilmaydi va qo'shimchasiga glitserin, sulfat natriya tuzi ham beradi. O'rmonlar ham bioresurs hisoblanadi. Ular chiqindisidan qattiq va suyuq biotopliva olish mumkin. Biotopliva – o'rinbosar energiya manbai bo'lib, asosan biologik xomashyolardan olinadi(bular suyuq, qattiq va gazsimon yoqilg'i ko'rinishda bo'ladi, bular o'zidan tutun chiqarmaydi, atrof-muxitni zaharlamaydi, to'la yonadi). Demak, biologik o'simliklardan, o'rmonlardan, hayvonlar va parrandalar chiqindisidan yoqilg'i resurslarini (biometanol, bioetanol, biodizel, biogaz va vodorod) olishni yo'lga qo'yish mumkin.

Hozirgi vaqtda elektr energiyadan foydalanish juda qimmatga tushayapti, uning iste'molchilarga uzatish borasida 23% energiya yo'qotilyapti, tabiiy gazdan esa 20% gaz resurslari yo'qotilyapti. Respublika iqtisodiy tadqiqotlar markazi, muqobil energiya manbalarini muassasalari ekspertlari fikricha quyosh va shamol energiyasidan foydalanish, fotoelektrstansiyalarning ishga solish asosida 700ming yangi ish o'rinlari yaratiladi, bir mln. tonna biotopliva va 400ming tonna sun'iy biotopliva ishlab chiqarish mumkin ekanligi aytilmoqda.

Hozirgi vaqtda qishloq xo'jaligi sektori dunyodagi ichimlik suvlarni 70% iste'mol qilinmoqda va chiqindilarning 13% (parnik biogaz chiqindilari) hamda hozirgi ishlab chiqarish texnologiyalaridan foydalanish tufayli ekin yerlarning melorativ holati yomonlashyapti, yerlar sho'rlashib, quriqlashib qolyapti, biologik o'simliklarning yovvoyi o'tlar va xasharotlar bosib ketyapti. Bularning natijasida 5-10 mln. qishloq axolisi atrof muhitdan zaharlanmoqda. Har yili 80-100 ming odamlar o'lmoqda, turli xil kasalliklarning 80 % suvni iste'mol qilishdan kelib chiqmoqda. Qishloq xo'jaligini yaxshilash, ekinzorlarni parvarish qilishda tabiiy resurslardan ko'plab foydalanish, suv resurslaridan oqilona foydalanish ko'proq organik maxsulotlarni ishlab chiqarish borasida AQSh davlati har yili 300 mlrd. dollar sarflamoqda, natijada tuproqni tabiiy unumdorligi oshdi, yangi agrotexnik usullardan foydalanildi va paxta, bug'doy, makkajo'xori, dukkakli va boshqoli ekinlardan xosildorligi 10-13 % oshdi, hamda ichimlik suvlarni sifati yaxshilandi. AQShdagi xalqaro energetik agentligi, ekologik jamiyat mutaxassislarini fikrlaricha jaxon yalpi ichki maxsulotini (YalM) 2 %ni "yashil iqtisodiyot" ga o'tish uchun sarflansa yetarli bo'ladi va "yashil iqtisodiyot" samaradorligi dunyoda kambag'allikni yo'qotishda, xalq farovonligini oshirishda asosiy omilga aylanadi. Hozirgi vaqtda jahon aholisini 49 % shaharda yashaydi va 65-75 % energiya iste'mol qiladi. 75-80 % chiqindilarni atrof-muxitga tashlaydi. (chiqindilar hajmi 8,6 mlrd. tonna) va ko'p xollarda kasalliklarni keltirib chiqarmoqda, chiqindilarni yoqib yuborishda atmosfera zaharlanmoqda, ularni ko'mib yuborishda yer tarkibi yomonlashyapti, suv manbalari daryo, ko'llar ifloslanmoqda, hisob kitoblarga qaraganda (YuNEP xalqaro tashkilot ekspertlari bergan xulosalar) natijasida jahon YalM 15-25 % yo'qotilmoqda. Jahon iqtisodiyotini "yashil iqtisodiyot" tizimiga o'tish borasida birgina elektr energiyasidan foydalanish borasida oddiy lampochkalarni svetoiod lampochkalarga o'tkazish natijasida kutilayotgan iqtisodiy samaradorlik 2 trln. dollar bo'lib, atrof-muxitga tashlab yuborilayotgan chiqindilar hajmi 11 giga tonnaga kamayadi, iste'molga ketayotgan neft resurslari 1 mlrd. barrelga tejaladi va ishlab turgan ko'p harajatti elektrstansiyalar yopiladi. O'zbekiston iqtisodiyotida foydalanilayotgan texnologiyalar tejamkor emas, juda ko'plab chiqindilar chiqaradi. Masalan, har yili 110 mln. tonna dvioksi uglerod SO atmosferaga tashlanadi, buning natijasida tabiiy gazni eksport qilish borasida 4,5 mlrd. dollar yo'qotilyapti. Kuchlanishi 500 kv(1 mln kv soat/bir yilda) bo'lgan shamol energiyasiga asoslangan qurilma IES(issiqlik energiyasi stansiyasi) ga nisbatan zaharli moddalarning atmosferaga tashlashdan saqlaydi. Ya'ni 750-1250 tonna SO₂, 8 tonna dviokisi oltingugurt, 6 tonna chang tutun va 70 tonna kul-kukunlarni atmosferaga chiqarishdan saqlaydi. Bugungi kunda (Toshkent shahrida) O'zbekistonda qattiq uy xo'jalik chiqindilarni to'plash, qayta ishlash va ulardan maxsulot tayyorlash bo'yicha 8 ta klaster ishga tushib, yiliga quvvati 146000 tonna, kuniga 400 tonna xo'jalik chiqindilarni qayta ishlovchi zavod ishga tushdi. Qoraqalpog'istonda yiliga 78000 tonna chiqindini qayta aishlovchi korxona qurildi. Navoiy shaxrida kuniga 200 tonna chiqindini qayta ishlovchi zavod ishga tushdi. Bundan tashqari

O'zbekistonda 186 poligon ishga tushib bularga 34 mln. tonna chiqindilar yerga ko'milyapti. Hozirgi sharoitda O'zbekistonda bir dexqon 10-13 ta odamni boqayotgan bo'lsa, "Yashil iqtisodiyot"ga o'tgan davlatlar Shvesiya, Finlandiya va Janubiy Koreyada 1 dexqon 50-60 ta odamni boqmoqda²⁶.

O'zbekistonda davlat byudjetidan 2017-2021-yillarda 314,1 mlrd. so'm mablag'lar "Yashil iqtisodiyot"ga o'tish yo'lida sarflanmoqda. Toshkent shaxrida joylashgan quyosh energiyasi xalqaro instituti "Yo'l xaritasi"da O'zbekistonni 2017-2021-yillarda quyosh energiyasidan foydalanish samaradorligi ishlab chiqilgan. Shu kunlarda O'zbekiston Oliy majlis palatasida "Yashil iqtisodiyot" ta'riflari to'g'risidagi qonun loyihasi ishlab chiqilmoqda. Xalq xo'jaligining turli sohalarida "Yashil iqtisodiyot"ga o'tish reformasiga 2,1 mlrd.dan ko'p dollar, xorijiy investitsiya kiritilishi juda quvonarli holat hisoblansada, bugungi kunda Respublika poligonlarida 370 mln. metr kub qattiq chiqindilar to'plangan bo'lib, yiliga 12-13 mln.m. kubga ko'paymoqda. Lekin yirik shaxarlar Toshkent, Samarqand, Andijon,, Namangan va Farg'onada bu chiqindilar hisobi olinmaydi va doimiy nazorat qilinmaydi. Alohida hollarda chiqindilarni tekislash, jipslash-preslashda buldozerlar ishlatiladi.[2]

XULOSA

O'zbekistonning "yashil iqtisodiyot"ga o'tishi quyidagi sohalarida rivojlanishi maqsadga muvofiq deb qaralmoqda, ya'ni muqobil(o'rinbosar) energiyalar ishlab chiqarish(quyosh, shamol energiyasi, geotermal energiya, biogaz), uy-joy kommunal xo'jaliklarida (JKX) suvdan, gazdan, energiyadan foydalanish soxasida, qurilish soxalarida, shaxar transport xizmatidan foydalanishda, muqobil energiyadan(biotopliva, sun'iy biotopliva, biogaz va bioresurslardan foydalanish) chiqindilarni qayta ishlash, ulardan maxsulot sifatida foydalanish(maxalliy o'g'itlardan, pestitsidlardan, organ o'g'itlardan samarali foydalanish) o'rmonchilikni barpo qilish, rivojlantirish, bioparklar barpo etish va iqtisodiyotni ekologik sog'lomlashtirish, xalq farovonligini (inson iste'molida biologik sig'imkorlikni ko'paytirish) yaxshilash kabi masalalarga davlat byudjet harajatlarini qaratmoq davr talabidir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. P.A.Kovolyov va A.A.Shevelevlar muallifligida yozilgan Tut ipak qurilish urug'chiligi va selektsiyasi Costanza, R., Stern, D. I., He, L., Ma, C. (2004).
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent, "O'zbekiston", 2022.
3. Stat.uz

²⁶ 2011 yil YuNEP tashkiloti hisobotida